



O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK, XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH MASALASI RIVOJINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI (2016-2024 YILLAR MISOLIDA)

Bayzakova Gavhar Bazarbayevna

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti

“Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar“ kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglik, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi rivojining ijtimoiy-falsafiy tahlili (2016-2024 yillar misolida) masalasi ko'rib chiqilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tengligi bo'yicha amalga oshrilgan chora-tadbirlar mazkur sohaga oid qabul qilingan qarorlar, strategiya va qonunlar asosida muammo va yechimlar yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: *Huquq va erkinlik, "gender" tushunchasi, kafolat, strategiya, xotin-qizlar, gender tengilikka erishish strategiyasi, tayziq, zo'ravonlik, himoya, qonun, huquq, tenglik.*

ABSTRACT

This article examines the socio-philosophical analysis of the development of gender equality and social protection of women in the new Uzbekistan (using the example of 2016-2024). The measures taken in our country in recent years on gender equality, the decisions, strategies and laws adopted in this area, and the problems and solutions are highlighted.

Keywords: *Rights and freedoms, the concept of "gender", strategy, women, strategy for achieving gender equality, violence, protection, guarantee, law.*

KIRISH

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Barchamizga ayonki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat siaftida ma'qullangandi. Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan onundir. Jumladan, qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan

iborat. Ma'lumki, "gender" tushunchasini erkaklar va xotin-qizlarni jamiyat hayotida birdek faol ishtiroki, ularning teng huquq va burchlarga ega ekanligi deb talqin etish ancha keng tarqalgan. Ammo gender tushunchasi faqat ayollar manfaatini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashlariga, hayot sifatini oshirish uchun ularga bir xil imkon berish kerakligini ham anglatadi. Aynan rivojlangan jamiyatlarning talablaridan biri – bu erkak va ayol huquqlari tengligini ta'minlashdir. So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda yurtimizda Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 26 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deb belgilab qo'yilgan. Darhaqiqat, gender tenglik – bu mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir. Boshqacha qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish, yurtga tobora ko'proq investitsiya jalb qilish, turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun ham bu omilga alohida etibor berish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

O'tgan so'nggi yillarda erkaklar hamda xotin-qizlar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta'minlash, xotin qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shunindek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilidi, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjalari qabul qilindi. Xususan, 2019-yillari qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini mustahkamlashga doir muhim qadam sifatida jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi. Ularda "gender" tushunchasiga ilk bor tarif berish bilan birga xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi .

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Bugungi kunda mamlakatimizda bu borada tizimli chora-tadbirlar amalga

oshirilmoqda. Masalan, 2030-yilga qadar mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish Strategiyasining qabul qilinishi bu boradagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi . Mazkur tarixiy hujjatda gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyillari qatorida qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoraliq prinsiplari belgilangan. 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi 9 ta maqsadni qamrab oladi. Bular:

- ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyatlar va huquqlarni yaratish;
- ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda genler tengligini ta’minlash;
- bugungi hayot davomida barcha uchun adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash;
- barcha xotin-qizlar uchun gender tengligini ta’minlash, zo‘ravonlikdan himoyalash, odam savosiga chek qo‘yish;
- barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog‘lom turmush tarzini ta’minlash;
- milliy gender statistikasini rivojlantirish;
- rejalashtirish va byudjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;
- OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta’minlash;
- barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta’minlash masalalariga xotin-qizlarni jalg qilish .

Bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq, shu jamladan, vazirlik va idoralarda, mahalliy ijroiya hlokimiyati organlarida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zahirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo‘yicha tizimli o‘quvlar tashkil etilmoqda. Yoki, ayni vaqtda, Ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimida mehnat qilmoqda. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo‘lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarni tashkil etmoqda. O‘zbekiston tarixida birnchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Xususan, mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 mamlakat parlamenti o‘rtasida 37 o‘rinni egallab turibdi. Holbuki, – shunga e’tibor berishingizni so‘rayman – bundan 5 yil avval biz bu borada 120-o‘rinda edik .

Shu bilan birga, xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalardagi o‘rnini yanada yuqori darajaga ko‘tarish muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Buning uchun xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligini ta'minlashga doir dolzARB masalalarga oid tegishlar qarorlar qabul qilish zarur ko'rinadi.

Shu nuqtayi nazardan, gender tenglikka erishish Strategiyasiga asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, gender tenglikka erishish bir qator dasturlar yo'naliishlarida amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imokoniyatlarni ta'minlash, shular jumlasidandir. Shuningdek, Strategiyada gender tenglikni ta'minlash tadbirlarini hisobga olgan holda, davlat dasturlarini byudjetlashtirish va moliyalashtirish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, yuqori va qo'yи tizimdagи davlat organlaridagi rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kenggaytirib boriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bugungi yangilanayotgan jamiyatda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida muayyan o'zgarishlar, siljishlar, hattoki, yutuqlar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, Gender tenglik indeksida O'zbekiston 188 ta mamlakat orasida 57 o'rinni egallab turibdi. Bu ko'rsatkich xotin-qizlar ta'lim olishi va iqtisodiy faolligi yuqori darjada ekanligi bilan izohlanadi. Yoki 2019-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan parlament saylovi yakunlari bo'yicha O'zbekiston tarixida ilk bor milliy parlamentdagi ayollar soni 32 foizga yetdi. Parlamentlararo Ittifoqning "Milliy parlamentlarda ayollar" reytingiga ko'ra, O'zbekiston parlamenti 193 davlat orasida 44 o'rinni egalladi. Siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushi 46 foizga, oliy ta'limda 47 foizga yetdi. Mamlakat rahbarlik lavozimlarida ayollar va erkaklar nisbati mos ravishda 27 foiz va 73 foizni tashkil etdi. Muhtaram ayollarimizdan 16 nafari Vatanimizning eng oliy mukofoti – "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga, iqtidorli qizlarimizdan 311 nafari Zulfiya mukofotiga sazovor bo'lganligi yanada quvonchlidir.

"Kelajakda O'zbekiston va Markaziy Osiyo ayollarini qanday tasavvur qilasiz?" degan savolga javob berar ekan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi, Markaziy Osiyo yetakchi ayollar ni muloqoti rahbari Tanzila Norboyeva shunday deydi:"Men kelajakda O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari ayollarini albatta sog'lom va baxtli ayollar sifatida tasavvur qilaman. Hozir haqiqatga aylangan erkin tanlov imkoniyati bunday baxtga erishishga yordam beradi, deb o'layman. Mamlakatimiz va mintaqamiz xotin-qizlari turli sohalarga tobora ko'proq jalb etilmoqda, ularning o'rni faqat oshxonada, degan eskicha qarashlarga barham berilmoqda. Bunday keyin ham yurtdoshlarimiz muhim qarorlar qabul qilishda oldingi safda bo'lishadi. Davlatimiz jamiyatda totuvlikni ta'minlashni maqsad qilib



qo‘ygan ekan, buni gender tengliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ishonchim komilki, tez orada bu ish doimiy va uzoq muddatli natijalar beradi”.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Zero, ayol – oila ustuni va jamiyat ko‘rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo‘lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo‘ladi. yangilanayotgan O‘zbekistonda gender tenglik masalasi jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xotin-qizlarning oilada, jamiyatda, qolaversa, davlat boshqaruvidagi faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-“Ўзбекистон”, Тошкент, 2019 йил, 17-бет.
2. Қаранг:“Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг хуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги (ЎРҚ-562-сон) ва “Хотин қизларни тазиик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги (ЎРҚ-561-сон) Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари. 02.09. 2029 й.
3. “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясini тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори, 28.05.2021 й., СҚ-297-IV-сон.
4. Ўша жойда.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи. – “Халқ сўзи”, 7-март, 2022 й.
6. <https://yuz/uz/https://yuz.uz/news/tanzila-narbaeva-gender-tenglik-yangi-ozbekiston-ustuvor-yonalishining-ajralmas-qismiga-aylandi>
7. Sadikova, D. A. (2023). TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE MODERN STUDY OUTLOOK: TEACHING DICTIONARIES. World of Scientific news in Science, 1(2), 104-115.
8. Kaipbergenova, D. (2017). THE IMPORTANCE OF MATERIAL DESIGNING IN LANGUAGE TEACHING. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 34(3), 62-63.
9. Kaipbergenova, D. (2016). CHET TILI O’QITUVCHILARINING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIC MAHORATI HAQIDA. ВЕСТНИК



КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 33(4), 48-50.

10. Каипберганова, Д. О. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ НА ОСНОВЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. In Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования (pp. 211-213).
11. Каипбергенова, Д. О. (2016). The role of language learning strategies in learning foreign languages. Молодой ученый, (12-4), 83-85.
12. Orakbaevna, K. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ZAMONAVIY METOD VA METODOLIYA. Научный Фокус, 1(1), 1472-1478.
13. Orakbaevna, K. D. (2023). GLABALLASHUV DAVRIDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI. Научный Фокус, 1(1), 1466-1471.
14. Kaipbergenova, D. (2023). BUGUNGI KUNDAGI MAMLAKATIMIZDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI. World scientific research journal, 15(2), 3-7.
15. Каипбергенова, Д., & Жуманиёзова, Н. С. (2023). БУГУНГИ КУН ТАЛАБА ЁШЛАРИДА АХЛОҚИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 652-668.